

TARIX FANLARINI O'QITISHDA MUZEYLARNING O'RNI.

Gadayeva Mohigul Muxamedovna

Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna

Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix va filologiya kafedrası tarix fani o'qituvchilari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14543342>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muzeylar, ularning vazifalari, xususiyatlari, turlari, mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatining rivoji hamda tarix fanlarini o'qitishdagi muhim roli haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Muzey, milliy qadriyatlar, moziy, muza, Gelikon tog'i, arxeologik yodgorliklar, Yunoniston, tarixiy xotira.

THE ROLE OF MUSEUMS IN THE TEACHING OF HISTORICAL SCIENCES.

Abstract. This article discusses museums, their functions, characteristics, types, the development of museum activities during the years of independence, and their important role in the teaching of historical sciences.

Keywords: Museum, national values, museum, muse, Mount Helikon, archaeological monuments, Greece, historical memory.

РОЛЬ МУЗЕЕВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК.

Аннотация. В данной статье говорится о музеях, их функциях, особенностях, видах, развитии музеев в годы независимости и их важной роли в преподавании истории.

Ключевые слова: Музей, национальные ценности, музей, муза, гора Геликон, археологические памятники, Греция, историческая память.

Mamlakatimiz tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, xalq an'analari, din, islom dini, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga sivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Yosh avlodni ajdodlari tarixini, yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda milliy g'urur his-tuyg'usini tarbiyalash, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi dolzarb masaladir.

Xo'sh, muzeylar oldin qayerda va qachon paydo bo'lgan va ularning ahamiyati nimalardan iboratligi haqida ushbu maqoladan baholi qudrat bilib olamiz. Bu so'z yunoncha atama bo'lib, "muza" so'zidan kelib chiqqan. Qadimgi yunon mifologiyasida san'at va fan ma'budalari "muzalar" deb yuritilgan. Shuningdek, "moziy" so'zining muzey atamasiga monand ekanligini ham e'tirof etish joizdir.

“Moziy “ so’zining lug’aviy ma’nosi – tarix, o’tmish degan mazmunni anglatadi. Aynan muzeylar ham vazifasiga ko’ra tarixni, o’tmishni namoyish qilishi bilan avlodlarga bilim beradi.

Ma’lumotlarga ko’ra, muzeylar dastlab antik davrda Yunoniston va Rimda vujudga kelgan.

Ayni shu davrda kolleksiyalash to’plash an’anasi paydo bo’lgan.

Yunonistondagi Gelikon tog’i yonida turli tasvirdagi yodgorliklar saqlanadigan joy muzeylarning ilk ko’rinishlaridan biri hisoblangan. So’ngra uyg’onish davrida Italiyada keyinchalik Angliya, Fransiya va Germaniyada ommalashgan. Muzeylar madaniy-ma’rifiy muassasa sifatida tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to’plash, saqlash, o’rganish va targ’ib qilish bilan umummadaniy ishga o’z hissasini qo’shadilar.

Muzeylar tarixiy xotirani jonlantirish omili bo’lib xizmat qilar ekan, unda namoyish etilayotgan materiallar ashyoviy dalil sifatida o’z davriga xos xususiyatlarni aks ettirganligi bilan, o’sha davr madaniyati hamda san’ati haqidagi xabari bilan bugungi kungacha juda qimmatlidir.

Mamlakatimizda “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to’g’risida”gi farmoni 1998-yil 12-yanvarda qabul qilinib, muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Keyinchalik mamlakatda “O’zbek muzey” jamg’armasi ham tashkil topdi.

Statistikaga nazar solsak, respublikamizda 7 mingdan ko’proq yodgorlik, shu jumladan, 2500 me’moriy obida, 2700 dan ziyod arxeologiya yodgorligi, 1800 dan ko’proq monumental san’at asari davlat muhofazasiga olingan. Hozirgi vaqtda O’zbekistonning barcha mintaqalarida, hatto ayrim olis tumanlarda joylashgan yodgorliklarni ta’mirlash, nurashdan saqlash ishlari olib borilmoqda

Tarix fanlarini o’rganishda muzeylarning o’rni juda katta. Muzeylar tarixiy, madaniy va ilmiy ma’lumotlarning markazlari sifatida ishlaydi va ularning bir nechta asosiy vazifalari mavjud:

1. Tarixiy merosni saqlash va namoyish qilish: Muzeylar tarixiy ob’ektlar, san’atiy asarlar, yozma manbalar va boshqa noyob narsalarni to’playdi va saqlaydi. Tarix fani doirasida bu asarlar qadimgi sivilizatsiyalar, ularning madaniyati, urf-odatlar va tarixiy voqealar haqidagi bilimlarni shakllantiradi. Muzeyda saqlanayotgan har bir predmet tarixiy davrni, xalqni va madaniyatni o’rganishda muhim ma’lumot beradi.

2. Ilmiy tadqiqotlar uchun manba: Muzeylar o’rganish va ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo’lgan manbalar bilan ta’minlaydi. Tarix fanlari tadqiqotchilari va talabalari muzeylarni tarixiy voqealar, davrlar va shaxslar haqida chuqurroq tushuncha olish uchun ishlatadilar. Masalan, arkeologik qazilmalar, asrlar osha saqlanib qolgan artefaktlar yoki tarixiy hujjatlar kashfiyotlar va yangi ilmiy nazariyalar uchun asos bo’lishi mumkin.

3. Madaniy o’zlikni saqlash va targ’ib qilish: Muzeylar xalqning madaniy merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o’ynaydi. Tarix fani, ayniqsa milliy tarixni o’rganish nuqtai nazaridan, madaniy o’zlikni rivojlantirish va saqlashda katta ahamiyatga ega.

Muzeylar tarixni o'rganishni individual yoki jamiyat darajasida amalga oshirish imkoniyatini beradi.

4. Jamoatchilikni ta'limlash: Muzeylar faqat ilmiy tadqiqotchilar uchun emas, balki keng jamoatchilik uchun ham ta'lim muassasasi sifatida xizmat qiladi. Tarixiy eksponatlar va interaktiv ko'rgazmalar orqali muzeylar odamlarni tarixiy voqealar, shaxslar va davrlar haqida o'rgatadi, shu bilan birga insoniyatning o'tganidan saboq olishga imkon yaratadi.

5. Kreativ fikrlash va tahlil qilishni rag'batlantirish: Muzeylar tarixiy va madaniy kontekstda yaratilgan asarlarni taqdim etgan holda, odamlarni tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy fikrlash va tahlil qilishga chaqiradi. Tarix fanlari o'rganilayotganda, muzeylar tadqiqotchilarni o'rganilgan tarixiy materialni yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqishga undaydi.

Shunday qilib, muzeylar tarix fanlari, madaniyat va san'atni o'rganishda ilmiy tadqiqotlar uchun beqiyos resurslar va tajriba maydonidir. Ular tarixiy ob'ektlar orqali o'tmishdagi hayotni va madaniyatni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu esa butun jamiyat uchun ahamiyatlidir.

“Muzei – xalq tarixining ko'zgusi ekanligini nazarda tutsak, u shu xalqning farzandlari – kelajak avlod qalbida faxr-iftixor tuyg'usini uyg'ota olishi kerak. Bizning vazifamiz esa buyuk tariximizni mana shunday ma'rifiy maskanlar yordamida avlodlarimizga to'laligicha yetkazib berishdan iborat” degan edi 1- Prezident I.Karimov.

Muzeylar tuzilishi jihatidan ikki xil bo'ladi: ochiq turdagi muzeylar va yopiq muzeylar.

Ochiq turdagi muzeylar sirasiga mamlakatimizdagi buyuk tarixiy shaharlar – ochiq osmon ostidagi yodgorlik-arxitektura, me'moriy inshootlar kiradi. Bunga ko'hna Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlardagi tarixiy me'moriy yodgorliklarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Undan tashqari Imom Buxoriy, Ahmad al- Farg'oni, Ahmad Yassaviy va boshqa ulug' allomalar xotirasi sharafiga bunyod etilgan koshonalar, haykal va maydonlar ham ochiq turdagi muzeylar hisoblanadi. Bu muzeylarda xalqning ko'p yillik me'moriy tajribasi, bilimi, malakasi, madaniyati va ma'naviyati yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning qurilish uslubidan tortib ishlatilgan naqsh va bo'yoqlarigacha tomoshabinda hayrat va zavq hissini uyg'otadi. Ajdodlarimizning va ularning davomchilari shu zamonning mohir usta va me'morlari san'ati butun dunyo ahlini o'ziga rom etgan holda o'zbek xalqining yuksak ma'naviyati va madaniy hayotidan darak berib turadi.

Muzeylar mazmun jihatdan quyidagi turlarga birlashadi:

Tarix muzeylari, tarix-arxitektura va tarixiy adabiyot muzeylari, o'lkashunoslik muzeylari, xotira-yodgorlik muzeylari, san'at muzeylari, sohali muzeylar, turli muzeylar.

Tarix, tarix-arxitektura va tarixiy adabiyot muzeylari xalqimizning uzoq o'tmishi, ko'p asrlar davomida qo'lga kiritgan yutuqlari, fan, ilm- ma'rifatga qo'shgan hissasi, tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar, yuz bergan o'zgarishlar, burilishlar, urush va madaniy yuksalishlar haqida hikoya

qiladi. Me'moriy inshootlarning qurilishi xalqimizning amaliy san'atidan, mahorati va malakasidan darak beradi. Fanga, ma'naviyatga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar, olimu alloma, shoiru nosir, tarixchi ijodkorlar faoliyatini yoritishga bag'ishlangan muzeylar tarixiy adabiyot muzeylari deyiladi. Respublikamiz poytaxti Toshkentda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nomi bilan faoliyat ko'rsatayotgan Adabiyot muzeyi mavjud. Respublikamizning boshqa qator viloyatlari markazlarida ham mahalliy adiblar va mutafakkirlar hayoti va ijodini targ'ib qiluvchi adabiyot muzeylari faoliyat yurgizib kelmoqda.

Viloyat, shahar, tuman tabiiy sharoiti, tarixi, xo'jaligi, madaniyati va turmushini xarakterlovchi hujjat va yodgorliklarni topib namoyish etuvchi muassasa O'lkashunoslik muzeylari deb nomlanadi. Ularda ma'lum hududning tabiiy sharoitidan tortib, o'ziga xos hayvonot va o'simlik dunyosi, shu yerda istiqomat qilayotgan xalqning kasb-kori, mashg'uloti, san'ati va boshqa xususiyatlari ochib beriladi. Bunday muzeylar tomoshabinga yerlik xalqning ma'naviy qiyofasini namoyish qiladi.

Xotira-yodgorlik hamda yodgorlik uy-muzeylari vatanimizning mashhur kishilari, arboblari, yozuvchi, rassom, kompozitor va olimlari xotirasini adabiy lashtirish uchun xizmat qiladi. Imom Buxoriy majmuasi, Bahovuddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Al-Farg'oniy majmualari, Temuriylar davri madaniyati tarixi, qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari, g'afur g'ulom, Oybek, Abdulla qahhor va boshqa san'atkorlar hayoti va ijodini yorituvchi yigirmaga yaqin uy-muzeylar mavjud bo'lib, ular xalqimizga ma'naviy oziq berib turibdi.

San'at muzeylari sirasiga tasviriy san'at, amaliy san'at, musiqa, kino, teatr san'ati yutuqlari muzeylari, suratlar ko'rgazmasi va hokazolar kiradi.

Sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa sohalaridagi yutuqlarni namoyish etuvchi madaniy-ma'rifiy maskanlar sohali muzeylar deb ataladi.

Bulardan tashqari xalq maorifi, sog'liqni saqlash, boshqa korxonalar tarixini yorituvchi, maktablarda tashkil etilayotgan hududiy tarixiy joy va insonlar faoliyatiga oid muzeylar ham faoliyat yurgizmoqdalar.

Bu ishlarni tashkil etishda asosan muayyan soha fidoiylari, jamoatchi, tarixchi mutaxassislar, o'qituvchilar faol qatnashadilar.

Muzey ijtimoiy vazifasiga ko'ra ilmiy tadqiqot-ma'rifat (muzeylarning ko'pchiligi asosan shu vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, ularni ommaviy muzeylar deb ham yuritishadi); tadqiqot (ilmiy-tadqiqot institutlari qoshida o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'taydi) va o'quv muzeylariga, yo'nalishi va kolleksiyalariga qarab tarmoq, o'lkashunoslik (kompleks) va memorial muzeylarga bo'linadi.

Tarmoq muzey ishlab-chiqarish, fan, san'atning biror tarmog'iga tegishli bo'ladi (masalan, tarix muzeylari, zoologiya muzeylari).

O'lkashunoslik muzeylari muayyan ma'muriy hududning tarixi, tabiati, xo'jaligi, san'ati, etnografiyasi va boshqa sohalarini kompleks aks ettiradi. Memorial muzeylar muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarga bag'ishlanadi.

Har bir muzey o'zining yo'nalishi, eksponatlari bilan o'ziga xos. Xususan, O'zbekiston tarixi davlat muzeyida xalqimizning mustaqillikkacha hamda undan keyingi davr tarixini qiyosiy jihatdan tomosha qilib hayajonga tushasiz. O'zbekiston Davlat san'at muzeyida esa o'zbek xalqining bebaho va betakror san'at asarlarini hayrat hamda havas ila tomosha qilib, qalblarimiz iftixor, ko'ngillarimiz g'urur tuyg'ulariga to'lishi shubhasiz.

Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurgan tomoshabinlar buyuk ajdodlarimizning aql-zakovati, topqirligi va ijodkorligiga, mard va jasurligi hamda tadbirkorligiga oid eksponatlarni ko'rib yana bir bor uzoq moziyga sayohat qilgandek bo'ladi.

eng muhimi, mavjud muzeylarning hammasida o'z ishining ustalari, tarixiy va zamonaviy bilimlarni egallagan bilimdon mutaxassislar faoliyat olib boradi. Bu esa, xalqimizning o'tmishga, tarix va madaniy merosga bo'lgan hurmat va ehtiromini yanada oshirishga, moddiy va ma'naviy boyliklarimizni ko'z qorachig'idek asrashga da'vat etuvchi yangi ijodiy imkoniyatlar eshiklarini ochib bermoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 26-may kuni e'lon qilingan "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar biz uy-muzeylari xodimlarini ham qo'lni-qo'lga berib, ijodiy hamkorlik rishtalarini har tomonlama mustahkamlashga, ishga yangicha munosabatda bo'lib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda tashrif buyuruvchilarga namunali xizmat ko'rsatishning ta'sirchan usullarini keng qo'llashga undaydi. Toshkent shahar uy-muzeylari o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro hamkorlik sohada olib borilayotgan keng qamrovli ishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ijodiy rejalarni muhokama qilish, fikr almashish, sifatli va samarali taklif, tavsiyalardan unumli foydalanish, muxtasar aytganda, tomoshabinga muzey ashyolari haqida batafsil ma'lumot berish imkonini yaratadi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 20-mayda Adiblar xiyobonidagi tantanali marosimda bergan topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining "2020–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori ijrosi doirasida Abdulla Qahhor uy-muzeyi va Toshkent moliya instituti o'rtasida imzolangan Memorandum buyuk adib ijodini talaba-yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish, ularning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muzeyda institut Axborot-resurs markazi xodimlari ishtirokida o'tkazilib kelinayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar esa adib hayoti va ijodini mukammal o'rganishda alohida o'rin

tutmoqda. Eng quvonarlisi, institut ilmiy-adabiy maslahatchisi, jurnalist Nuriddin Ochilov sal kam bir yil davomida adib hayoti va ijodi bo'yicha izlanishlar olib borib, "ehtiroim" nomli asar yaratdi.

Bu adib hayoti va ijodini o'rganishda kitobxonlarimizga munosib tuhfa bo'ldi. Shuningdek, mazkur oliy ta'lim muassasasi muzeyimizni ta'mirlab, komp'yuter bilan ta'minlashi, Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan vazifalarning bajarilishiga amaliy yordam berishi bilan birga, ijodiy hamkorligimizning yuksalishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni kunlarda muxlislarimizga Abdulla Qahhor uy-muzeyining ekspozitsiya va noyob kolleksiyalari, ilmiy-adabiy yangiliklari haqida qiziqarli ma'lumotlar berishga tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Zero, har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, hamisha tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar hamda qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Bu borada esa muzeylarning o'rni beqiyos. Ular uzoq o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimga solingan yig'indisi ekani bilan ham qimmatlidir.

REFERENCES

1. Muzeyshunoslik" Bekmurodov.M.B, Rashidova M.X . T-2007
2. "Muzeylar — tarix tilsimoti, qadriyatlar beshigi". Abdulla Qahhor uy-muzeyi direktori.
3. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. *Miasto Przyszłości*, 52, 557-562.
4. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
5. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
6. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).
7. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
8. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
9. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
10. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.

11. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
12. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.
13. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
14. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.
15. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
16. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
17. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
18. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
19. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*
20. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
21. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
22. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
23. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
24. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
25. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.

26. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
27. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
28. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
29. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
30. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
31. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
32. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
33. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
34. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
35. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 655-659.
36. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
37. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
38. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
39. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
40. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.

41. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
42. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
43. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
44. Sadullayev, U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(4), 376–385.
45. Sadullaev, U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(5), 344–352.
46. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(6), 238–241.
47. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
48. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
49. Shokir o'g'li, S. U. (2024). The Development of Culture and Art during the Timurid Era: the Development of Architecture and its Characteristics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 133-138.
50. Shokir o'g'li, S. U. (2024). The Development of Culture and Art during the Timurid Era: the Development of Architecture and its Characteristics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 133-138.
51. Sadullayev, U. (2024). EDWARD ALLWORTH AND THE STUDY OF MODERN UZBEKS. *Modern Science and Research*, 3(2), 303-308.
52. Shokir o'g'li, S. U. (2024). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
53. Sadullayev, U. (2024). ETHNOGENESIS AND ETHNIC HISTORY OF THE UZBEK PEOPLE. *Modern Science and Research*, 3(2), 355-361.
54. Shokir o'g'li, S. U. (2024). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.

55. Sadullayev, U. (2024). THE CONCEPT OF JADIDISM AND ITS ESSENCE. Modern Science and Research, 3(2), 631-636.
56. Sadullayev U. (2024). MIRZA SIROJ HAKIM AND HIS LEGACY. Modern Science and Research, 3(2), 902–910.
57. Sadullayev, U. (2024). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. Modern Science and Research, 3(1), 607–613.
58. Shokir o'g'li, S. U. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 480-485.
59. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li, (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. International Journal Of History And Political Sciences, 3(10), 25–30.
60. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 554-559.
61. Sadullayev U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. Modern Science and Research, 2(10), 488–493.
62. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. Modern Science and Research, 2(12), 722–727.
63. Sadullayev Umidjon Shokir O'gli, . (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN O. A. SUKHAREVA AND HER STUDIES. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 30–35.
<https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-07>